

## PAHLAVONQULI RAVNAQ IJODINING AVAZ O‘TAR LIRIKASIGA TA’SIRI XUSUSIDA

*Mohidil Usmonova,  
Qarshi DU, Filologiya fakulteti talabasi.  
mohidilusmonova365@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan biri bo‘lgan Pahlavonquli Ravnaq ijodining Avaz O‘tar she‘riyatiga ta’siri masalasi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** *devon, adabiy an’ana, g‘azal, radif, poetik mahorat.*

Ma’lumki, Sharq mumtoz adabiyotida an’ana va izdoshlik tushunchalari mavjud bo‘lib, har bir shoir o‘zidan avval ijod etgan mashhur so‘z san’atkorlari g‘azallariga ergashgan holda o‘xshatma asarlar, naziralar yaratadi. O‘zbek adabiyotining atoqli vakili Avaz O‘tar ham mazkur an’anani munosib davom ettiradi. “Ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy, ulkan qalam sohibi Munis va Ogahiy Avazning ustozlari bo‘lib qoldi. Avaz ulardan ta’lim oldi, she‘rlariga o‘xshatma – naziralar bitdi, g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi”[3:136]. Shuningdek, Avaz O‘tar ijodida Pahlavonquli Ravnaq lirikasi ta’siri ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ravnaq she‘rlari mumtoz adabiyot bulog‘idan oziqlangan holda yaratilgan bo‘lib, Lutfiy, Fuzuliy, Navoiy kabi ijodkorlar shoir ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan bir qatorda, Pahlavonquli Ravnaq g‘azallari o‘zidan keyingi shoirlar ijodiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, Avaz O‘tar va Ravnaq devonidagi g‘azallar bilan tanishar ekanmiz, ulardagi shakliy va mazmuniy o‘xshashliklarga duch kelishimiz mumkin. Quyida Xiva adabiy muhitining ikki zabardast vakili g‘azallaridagi ayrim mushtarak jihatlariga to‘xtalib, ularning poetikasi to‘g‘risida ayrim mulohazalarni bildiramiz.

Ravnaqning mashhur g‘azallaridan biri quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

*Yor o‘lub ag‘yora men zoringni o‘lturmak nedur?*

*Rashk o‘tig‘a har zamon jonimni kuydurmak nedur?* [2:31-32]

Ravnaq ishqiy lirikasining go‘zal namunasi bo‘lgan ushbu g‘azalda shoir yorga murojaat qiladi. Ya’ni ma’shuqa raqib (ag‘yor) bilan do‘st tutingan holda, oshiqni ishq o‘tida o‘ldiradi, rashk o‘tida kuydiradi. Avaz O‘tar ijodida ham ayni shu radifli oshiqona g‘azalni uchratishimiz mumkin. G‘azal matla’si quyidagicha:

*Bo‘yla, ey kofir ko‘z, ishq ahlin o‘lturmak nedur?*

*O‘lturub rashk o‘ti ichra bo‘yla kuydurmak nedur?*[1:160-161]

Bu yerda “ishq ahli” deya oshiqqa ishora qilinadi. Bayt mazmuni Ravnaq bayti bilan hamohang. Biroq, Avaz O‘tar ishq o‘tida yonishining sababi sifatida yorning jon oluvchi ko‘zlarini keltiradi. Keyingi misralarda ifoda usuli yanada mukammallashib boradi.

**Ravnaqda:** Ochilib guldek guliston sahnida, ey guluzor,

Sayr etib ag‘yor birla, har taraf yurmak nedur? [2:31-32]

**Avaz O‘tarda:** Oshiq-u bechorag‘a aylab itob-u qahri kin,

Muddaiylar xaylining ko‘nglini o‘sturmak nedur? [1:160-161]

Mazkur ikki baytda ham ikki ijodkor o‘xshash fikrlar va timsollardan foydalanadi. Jumladan, Ravnaq yorning ag‘yor bilan yayrab-yashnab bog‘ kezishidan ozorlansa, Avaz O‘tar lirik qahramoni ma’shuqaning qahridan, uning muddaiylar (raqiblar) bilan munosabatidan, oshiqqa e’tiborsizligidan aziyat chekadi.

Ravnaq ishqiy lirikasida mavjud bo‘lgan quyidagi baytda yor tasviri va tavsifi asosiy mavzu bo‘lib xizmat qiladi:

*Haramdin chiqdi ul sarvi gulandonim xirom aylab*

*Jahonni shu'lai ruxsoridin o'rtab, tamom aylab* [4].

Avaz O'tar lirikasida ham shunga o'xshash bayt mavjud, ya'ni:

*Bihamdillahki, keldi dilbarim tarki jafu aylab*

*Adovu ishva birla yuz ochib mehr-u vafo aylab* [1:49].

Baytlar mazmuniga e'tibor berilsa, aslida, yorning “haramdin chiqishi” “tarki vafo” aylaganidan dalolat. “Ishva bila yuz ochgan” sanam, tabiiyki, “jahonni ruxsoridan o'rtaydi”. Ifoda usuli turlicha bo'lsa-da, ma'no mushtarakligi bu ikki g'azalni bir-biriga yaqinlashtirgan.

Xiva adabiy muhitida faoliyat yuritgan ko'plab ijodkorlar qatorida, Pahlavonquli Ravnaq va Avaz O'tar g'azallari ham o'zbek mumtoz lirikasining go'zal namunalari o'laroq, adabiyotimiz hazinasidan unutilmas joy egalladi. Mustaqillikdan keyingi yillarda bu ikki shoir shaxsiyati va ijodi borasida deyarli tadqiqotlar amalga oshmadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Танланган асарлар. – Т., 1956.
2. Девон. – Т., 1976.
3. Сайланма. – Т., 1984.
4. Юсупов Ю., Аваз, Т., 1954; Айёмий, Ўт чакнаган сатрлар. – Т., 1983;
5. Қобулов Н., Ҳаққулов И., Мўминов а В., Аваз ва унинг адабий муҳити. – Т., 1987.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/avaz-otar-gazallar-muxammaslar-ruboiylar.html>